

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

# JORAI

Journal of


## RESEARCH

and

## INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

*Volume I, Issue 5*



IMFAKTOR  
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-1, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-1, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-5>

## Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

## Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор  
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор  
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор  
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент  
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор  
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор  
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор  
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти  
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор  
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор  
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент  
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент  
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

*Филология фанлари*

**MAMAZIYAYEVA Gulhayo Ilhomjon qizi**  
*Andijon Davlat Chet tillari instituti  
magistranti*

**ALIMOV Sharafiddin**  
*Andijon Davlat Chet tillari instituti  
Filologiya fanlari doktori Professor*  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7947728>

## **BOSHLANG'ICH BOSQICHDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK, LINGVISTIK VA DIDAKTIK OMILLARI**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabda boshlang'ich sinflarda ingliz tili fanini o'qitishda multimedia mahsulotlarining o'rni va hozirgi kunda dars jarayonlarini sifatli tashkil etilishida zamonaviy metodlarning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** multimedia, AKT, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ilovalar.

**МАМАЗИЯЕВА Гюлхайя Илхамжон кизи**  
*Андижанский государственный институт иностранных языков  
магистрант*

**АЛИМОВ Шарафиддин**  
*Андижанский государственный институт иностранных языков  
Доктор филологических наук профессор*

## **ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ**

### **ANNOTATION**

This article will talk about the role of multimedia products in teaching English in elementary grades at school and the importance of modern methods in the qualitative Organization of course processes at present.

**Keywords:** multimedia, ICT, pedagogical technologies, modern applications.

**MAMAZIYAYEVA Gulhayo Ilhomjan kizi**  
*Andijan State Foreign Language Institute*  
*master*

**ALIMOV Sharafiddin**  
*Andijan State Foreign Language Institute*  
*Doctor of philological Sciences Professor*

## **ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается роль мультимедийных продуктов в преподавании английского языка в начальных классах в школе и значение современных методов в качественной организации процессов урока в настоящее время.

**Ключевые слова:** мультимедиа, ИКТ, педагогические технологии, современные приложения.

Yurtboshimizning tashabbuslari bilan hozirgi kunda ingliz tili fanini o'rganish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Qaysi sohada bo'lmasin xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirish har tomonlama yutuqlarga erishishimizga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xorijiy tillarni esa yoshlik chog'laridanoq o'rganishga intilish ko'plab yoshlar orasida ommalashgani albatta quvonarli holat. Ingliz tili darslarini yana ham sifatli tashkil etish va o'quvchilarning bilimlarini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish allaqachon barcha umumta'lim maktablariga kirib borgan.

Ta'lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Bu qonuniyatlarda ta'limning umumdidaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlarda esa ayrim fanlarni o'qitishga xos bo'lishi mumkin, masalan; ingliz tili o'qitish tamoyillari [1].

Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to'la hal etilmagan bo'lib, agar bir guruh tamoyillar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchi esa til materialining qaysidir bo'limiga xos bo'lgan tamoyillardir. Oxirgisi maxsus tamoyillar deyiladi.

Tamoyil (prinsip) termini «asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida» ma'nosini ifodalaydi. Ye.I.Passov fikricha, «tamoyil o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir».

Konsepsiya va tamoyillarning to'g'ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi [2].

Ilmiy manbalarda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish konsepsiyalari va bir necha o'nlab tamoyil (printsip)larni olg'a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta'lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan EAS 89/04, Lot 1 «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

1. Mazmunli kontekst va o'quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);
2. Ingliz tili o'rganishga ijobiy yondashish (pedagogik);
3. Xolistik o'rganish (metodologik);
4. Ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to'liq inobatga olish (psixolingvistik);
5. O'quvchilarni o'zgalarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash (pedagogik);
6. Vizual yondashuvga ustuvor ahamiyat bergan holda boshqa nutq analizatorlarining to'liq ishtirokida o'rganish (psixologik masalalarni metodologiyaga tatbiq etish);

7. Ingliz tili o'rganishga motivatsiya uyg'otish (ichki turtkini qo'zg'atish) (psixolingvistik);  
8. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (pedagogik);

9. Nutq hosil qilinishi uchun tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish (didaktik);

10. Mashg'ulotlarni imkon qadar o'rganilayotgan chet tilda tashkil etish (pedagogik);

11. O'quvchilarning ingliz tilidagi o'rganish strategiyalari va usullarini hisobga olish (didaktik).

12. Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan ingliz tilining farqi bir paytning o'zida, uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi [3].

Ingliz tili o'quv predmetining xususiyatlarini yoritishda unga turlicha yondashishlar mavjud. Tadqiqotchilar chet tilning didaktik, psixologik, amaliy (funktsiyaviy), ta'limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib fikrlar bayon etishgan (I.V. Raxmanov, V.S. Setlin, J.J. Jalolov, T.Q. Sattorov, S.S. Saydaliyev va b.)

Bir guruh metodist-olimlar o'quv predmetlarini tasniflashda ularning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar (A.A. Mirolyubov, I.V. Raxmanov, V.S. Setlin). Birinchi guruhni fan asoslarini o'rgatadigan tabiiy va ijtimoiy (fizika, ximiya, tarix va b.) fanlar tashkil etadi. Uning birinchi xususiyati o'quvchilar ongida fan haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Yana bir xususiyati shundan iboratki, fan asoslarini o'qitish jarayonida shakllantirilayotgan ko'nikma va malaka fan sistemasiga bo'ysundirilgan bo'ladi [4].

O'quv predmetlarining ikkinchi guruhiga ko'nikma va malakani oshirishga qaratilgan (ashula, musiqa, jismoniy tarbiya va b. fanlarni kiritish mumkin. Ularning asosini muayyan umuminsoniy faoliyat amaliyoti tashkil etadi. Tadqiqotchilar ingliz tilini har ikki toifa o'rtasidagi o'quv predmeti deb hisoblaydilar, bilim va malakani shakllanishiga xizmat qiladi degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli metodistlardan T.Q.Sattorov ingliz tili predmetini quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflaydi:

1. Ona tili va ingliz tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi. Darsdan tashqari paytlarda o'quvchida ingliz tilida muloqot qilish uchun muhit deyarli mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.

2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi. Ingliz tili uchun esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ingliz tili darslarida o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur.

3. Inson bolasi tevarak-atrofnida ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Ingliz tilini o'rgatishda ahvol umuman o'zgacha. Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, ingliz tilida fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi.

T.Q. Sattorov bilim va malakaning o'zaro munosabati nuqtayi nazardan o'quv predmetlarini (a) bilim va nazariya beruvchi fanlar (tarix, adabiyot, geografiya); (b) amaliy malakani shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar (rasm, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya) kabi guruhlariga tasniflaydi. Bu borada ingliz tili o'qitish umumiy metodikasi mualliflarining fikriga qo'shiladi va ingliz tilini yuqoridagi ikki guruh o'rtasidagi predmet deb hisoblaydi [4].

Ingliz tili fanini o'rganish yoki o'rgatish qanchalik qiyin bo'lmasin hozirgi kunda til bilish o'quvchilarning har tomonlama yuksalishiga sabab bo'ladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi sifatida bu jarayonda til bilish naqadar muhim ekanligini tushunib yetdik. Kelajakda umumata'lim maktablarida dars berish jarayonida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirib til o'rganishning samarali usullarini aniqlashimiz oldimizda turgan ustuvor vazifadir.

**IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun ingliz tili oʻquv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq taʼlimi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.
2. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari boshlangʻich sinflar uchun darslik majmua. Kids' English Class 1,2,3,4. A.T.Irisqulov, S.Xan va mualliflar jamoasi. – T.: Oʻzbekiston, 2013.
3. Akbarova SH.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini (lugʻat bilan ishlash jarayoni) oʻqitishning lingvodidaktik asoslari. Ped. fan. nom. dis. – T.: OʻzDJTU, 1999. – 140 b.
4. Акбарова Ш.Х. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тилини (луғат билан ишлаш жараёни) ўқитишнинг лингводидактик асослари. Пед. фан. ном. дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 1999. – 140 б.

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-5

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)